XALQ DEPUTATLARI ANGOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-aprel VI-75-56-8-109-K/24 Angor tumani

Yerga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan, doimiy foydalanish va doimiy egalik qilish huquqi bilan ajratilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish holatini o‘rganish bo‘yicha Xalq deputatlari Angor tuman Kengash deputatlaridan iborat ishchi guruhi tomonidan o‘rganish natijalari to‘g‘risida.

Huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan yerlar va ushbu yerlardan foydalanish holati 2024-yilning 15-martdan 15-aprel kunlariga qadar xalq deputatlari Angor tuman Kengashining Ishchi guruhi tomonidan o‘rganildi. O‘rganish yakunlaridan kelib chiqib, Ishchi guruh tomonidan: samarali foydalanib kelinayotgan 168,8 gektar yer uchastkalari bo‘yicha Angor tuman hokimi va yerdan foydalanuvchi o‘rtasida ijara shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish); huquqni tasdiqlovchi hujjati to‘liq mavjud bo‘lmagan 114,3 gektar yer uchastkalaridan oqilona foydalanilmayotganligi uchun hokimlik zaxirasiga qaytarish choralarini ko‘rish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilib, xalq deputatlari Kengashi muhokamasiga kiritildi. Ishchi guruh tomonidan tayyorlangan takliflarni xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasida muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10-moddalari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining va Oliy Majlis Senati Kengashining 2023-yil 13-dekabrdagi 3787-IV/KQ 642-IV-sonli Qo‘shma qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-15-sonli Farmonining 5-bandiga asosan xalq deputatlari Angor tuman Kengashi QAROR QILADI:

1. Huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan yerlar va ushbu yerlardan foydalanish holatini o‘rganish bo‘yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashining Ishchi guruhi o‘rinbosari, tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari J.Po‘latovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Angor tumani hokimining 2018-yil 28-fevral №Q-775-sonli, 2019-yil 23-sentabr №Q-6571-sonli va 2020-yil 11-noyabr №1173-sonli qarorlarining 2-bandiga “doimiy foydalanish” so‘zlari “ijara asosida” deb o‘qilsin.

3. Ishchi guruhning quyidagi takliflari ma’qullansin: 168,8 gektar yer uchastkalari bo‘yicha Angor tuman hokimi va yerdan foydalanuvchi o‘rtasida ijara shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish); yer uchastkalarida huquqni tasdiqlovchi hujjati to‘liq mavjud bo‘lmagan va oqilona foydalanilmayotgan 114,3 gektar yer uchastkalarini hokimlik zaxirasiga qaytarish choralarini ko‘rish.

4. Tuman hokimligi qonunchilikda belgilangan tartibga qat’iy rioya etgan holda: 1-ilovaga muvofiq 168,8 gektar yer uchastkalari bo‘yicha tuman hokimi va yerdan foydalanuvchilar o‘rtasida ijara shartnomasini tuzish (ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish); 2-ilovaga muvofiq yer uchastkalarida huquqni tasdiqlovchi hujjati to‘liq mavjud bo‘lmagan va oqilona foydalanilmayotgan 114,3 gektar yer uchastkalarini hokimlik zaxirasiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

5. Davlat kadastrlar palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi Angor tuman filiali (E.Mengliyev) ushbu qarorning 1 va 2-ilovalariga asosan ijara shartnomasi tuziladigan (qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritiladigan) hamda hokimlik zaxirasiga qaytariladigan yer uchastkalari bo‘yicha kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish choralarini ko‘rsin.

6. Angor tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Kuchkarov) bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarining o‘rnatilgan tartibda mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishini ta’minlasin.

7. Angor tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari J.Po‘latov:

- uch kun muddatda yer maydonlari hokimlik zaxira yerlari hisobiga olinib, davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi belgilanganligi to‘g‘risida 2-ilovadagi yerdan foydalanuvchilar (fermer hamda boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari rahbarlari)ni xabardor qilsin;

- mazkur Qarorning ijrosini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritib borsin.

8. Xalq deputatlari tuman Kengashining yer munosabatlari sohasidagi qarorlari loyihalari xalq deputatlari Kengashi sessiyasi muhokamasiga kiritilishidan oldin Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilishi belgilansin.

9. Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Xudoyberdiyev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi MARDONOV QOSIM ESONOVICH

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining
2024-yil 29-apreldagi
VI-75-56-8-109-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Angor tumanidagi hokim bilan yerdan foydalanuvchilar o'rtasida ijara shartnomasi tuzish (ijara shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish) choralari ko'riladigan yer uchastkalari ro‘yxati

№	Yerdan foydalanuvchilar (fermer hamda boshqa qishloq xo'jaliklari korxonalari) nomi	Ixtisosligi	Yer maydoni joylashgan hudud nomi	Jami yer maydoni (gektar)	Kontur raqami	Shu jumladan:								Ijara shartnomasi tuzish (o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish) choralari ko'riladigan yer maydoni (gektar)	Kontur raqami	Shu jumladan:								Ijara shartnomasi tuzish (o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish) choralari ko'rilgandan keyingi yer maydoni (gektar)
						suvli	lalmi	bog'	tokzor	tutzor	ko'p yillik daraxtzorlar	yaylov yerlar	boshqa yerlar			suvli	lalmi	bog'	tokzor	tutzor	Ko'p yillik daraxtzorlar	yaylov yerlar	boshqa yerlar	
1	"AGROEXPORT-TALLIMARON" MChJ	Paxta G‘alla	Tallimaron	126,2	1072, 1069, 1012, 1013q, 1003, 1005, 1009q, 1014a, 1018q, 1009q, 1007, 1006, 1011, 1010	114,8							11,4	126,2	1072, 1069, 1012, 1013q, 1003, 1005, 1009q, 1014a, 1018q, 1009q, 1007, 1006, 1011, 1010	114,8							11,4	
2	OOO "AGRO EKSPORT ANGOR"	Bog‘dorchilik	Q.Tulakov	31,4	243,247, 248, 249,282	24,7							6,7	31,4	243, 247, 248, 249, 282	24,7							6,7	

3	"MUNISA ANGOR SURXON" MChJ	Sabzavotchilik	M.Azizov	11,2	139q	10,2							1,0	11,2	139q	10,2							1,0	
Tuman bo'yicha:				**168,8**	**X**	**149,7**							**19,1**	**168,8**	**X**	**149,7**							**19,1**	

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining
2024-yil 29-apreldagi
VI-75-56-8-109-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Angor tumanidagi huquqni tasdiqlovchi hujjati to‘liq mavjud bo‘lmagan va oqilona foydalanilmayotganligi uchun zaxiraga qaytarish choralari ko‘riladigan yer uchastkalari ro‘yxati

№	Yerdan foydalanuvchilar (fermer hamda boshqa qishloq xo‘jaliklari korxonalari) nomi	Ixtisosligi	Yer maydoni joylashgan hudud nomi	Jami yer maydoni (gektar)	Kontur raqami	Shu jumladan:								Zaxiraga qaytarish choralari ko‘riladigan yer maydoni (gektar)	Kontur raqami	Shu jumladan:							
						suvli	lalmi	bog‘	tokzor	tutzor	ko‘p yilik tutzorlar	yaylov yerlaryaylov yerlar	boshqa yerlar			suvli	lalmi	bog‘	tokzor	tutzor	ko‘p yilik tutzorlar	yaylov yerlaryaylov yerlar	boshqa yerlar
1	UMID AGROFIRMA MChJ	Chorvachilik	Tal limaro n ,Xomkon	54,6	999q, 998, 1000, 1002q, 750q	50,3							4,3	52,48	999q, 998, 1000, 1002q, 750q	50,3							4,3
2	RUSTAM- ShO‘RChI- FX	Paxta G‘alla	M. Azizov	55,4	438, 439, 441, 439a, 375	50,5							4,9	55,4	438, 439, 441, 439a, 375	50,5							4,9
3	ELYANORA-ANGOR X.K	Parrandachilik	MJK	4,3	47a	4,3								4,3	47a	4,3							
Tuman bo'yicha:				**114,3**	**X**	**105,1**							**9,2**	**114,3**	**X**	**105,1**							**9,2**